



O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Samarqand davlat chet tillar instituti
BUYRUG'I

8 iyun 2024 yil.

122/-son

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil 4-iyundagi kengaytirilgan
majlisining 45-son bayoni ijrosini
ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-iyundagi Oliy ta'lim muassasalarida 2024/2025 o'quv yili uchun qabul jarayonlari, kasbiy (ijodiy) imtihonlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar to'g'risidagi hamda Oliy ta'lim muassasalarida 2023/2024 o'quv yili yakunlari va 2024/2025 o'quv yiliga tayyorgarlikni tashkil etish to'g'risidagi kengaytirilgan majlisi 45-son bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-iyundagi kengaytirilgan majlisining 45-son bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. **Besh kun muddatda** ijodiy imtihon o'tkaziladigan yo'nalish bo'yicha yetakchi oliy ta'lim muassasalari (*Toshkent davlat pedagogika universiteti, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va boshqalar*) rektorlari (ro'yxat bo'yicha) **ijodiy imtihon bo'yicha yagona dasturlar va baholash mezonlarini ishlab chiqish** va kelishuv uchun o'rnatilgan tartibda vazirlikka kiritilishi;

ikki hafta muddatda ta'lim yo'nalishlari bo'yicha **yagona dastur va baholash mezonlari** muayyan yo'nalish bo'yicha yetakchi oliy ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlanib, bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik (idora)lar tomonidan **Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi** bilan kelishilgan holda tasdiqlanishi;

shuningdek, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida "Jismoniy madaniyat va sport" fanini o'qitish tavsiya etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, qabul komissiyasi raisi o'rinbosari (O.G'aybullayev), mas'ul kotib (S.Erkinov)ga:

bir kun muddatda qabul kvotalariga yakuniy takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-maydagi PF-81-son Farmon hamda

Klassifikatorga qat'iy rioya qilingan holda shakllantirib, belgilangan tartibda vazirlikka kiritish;

Bunda:

oliy ta'lim muassasasining sirtqi, kechki hamda masofaviy ta'lim shakllari bo'yicha umumiy kvotasi kunduzgi ta'lim shakli kvotasidan ortiq bo'lmasligi;

ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning shifr va nomlanishi Klassifikator bilan bir xil bo'lishiga qat'iy rioya etish;

milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikat talabi bo'yicha joriy qilingan islohotdan kelib chiqib, magistraturaga talabalarni jalb qilish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil qilish;

o'tgan yilgi salbiy holatlarning oldini olish maqsadida sertifikatga ega bo'lgan bakalavriat bitiruvchilari bo'yicha tahlil qilish va magistraturaga qabul kvotalarini shakllantirishda inobatga olish;

4. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, qabul komissiyasi raisi o'rinbosari (O.G'aybullayev), mas'ul kotib (S.Erkinov)ga:

institut rektorining 2024-yil 31-maydagi **"2024/2025 o'quv yili uchun qabul komissiyasi mas'ul kotibini tayinlash va qabul komissiyasi faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida"**gi 109-sonli buyrug'i bilan 2024/2025 o'quv yili qabulini yuqori saviyada o'tkazish maqsadida abituriyentlar va ularning ota-onalarini qiziqtirgan savollarga tezkor javob berilishini ta'minlash uchun **"Call center"** va **maslahat markazlari** tashkil etilganligi;

maxsus ikki qismga ajratilgan (maslahatchi-abituriyent) **maslahat markazlari** tashkil etilganligi;

tashkil etilgan **"Call center"** hamda **maslahat markazlariga** muomala madaniyatiga ega bo'lgan tajribali, mas'uliyatli xodimlarni birlashtirish va ularni internet tarmog'iga ulangan kompyuter, ish telefoni, qabul jarayoniga oid tegishli normativ-huquqiy hujjatlar nusxalari va boshqa zaruriy materiallar bilan ta'minlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

"Call center" va **maslahat markazlari** faoliyati bo'yicha ma'lumotlarni institut rasmiy veb-saytining asosiy sahifasida **"Qabul-2024"** bo'limini aks ettirilishini ta'minlash;

"Call center"da bir vaqtning o'zida kamida beshtagacha qo'ng'iroqlarga javob berish imkoniyatini yaratish choralarini ko'rish;

institut huzuridagi Narpay xizmat ko'rsatish texnikum direktori bilan birgalikda 2024/2025 o'quv yili uchun qabul jarayonlarini samarali tashkil etish, kasb va mutaxassislik egallash istagida bo'lgan yoshlarni oliy va professional ta'lim muassasalariga jalb etish maqsadida kasb va mutaxassisliklar to'g'risida videoroliklar, animatsion, informativ va infografik tarqatma materiallardan foydalangan holda kasbga yo'naltirish tadbirlarini tizimli va samarali tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

5. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor (Z.Kuziyev), reja-moliya bo'limi boshlig'i (A.Taniyev), ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati boshlig'i(J.Turopov)larga:

institutda O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi bilan Ichki audit boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan barcha nazorat tadbirlari natijasida aniqlangan qonunbuzarlik, amaldagi normativ-me'yoriy hujjatlarga rioya etmaslik holatlarini

bartaraf etish hamda kelgusida oldini olishga qaratilgan **chora-tadbirlar rejasini** tasdiqlash vazifasi yuklatilsin.

6. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor (O.G'aybullayev), mas'ul kotib (S.Erkinov), Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i (M.Sodiqov)ga

2024/2025 o'quv yilida institutga o'qishga qabul qilish boshlanayotganligini inobatga olib, qabul jarayonlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilishini oldini olishga qaratilgan **chora-tadbirlarni kuchaytirish;**

ichki komplayens nazorati xodimlarining **ish samaradorligini yanada yaxshilash maqsadida** zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyati ustidan **nazoratni kuchaytirish** vazifalari yuklatilsin.

7. O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i (A.Jo'raqulov), marketing va talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i (N.Egamberdiyev), fakultet dekanlari (A.Ismailov, v.v.b. B.Po'latov, A.Yaxshiyev, U.Sattarov, S.Erkinov, A.Nurmuratov, D.Xolmurodova, H.Mamaniyozov, S.Bozorov) va barcha kafedra mudirlari 2024/2025 o'quv yiliga qadar quyidagi topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlasin:

yangilangan klassifikator va malaka talablari asosida o'quv reja va o'quv dasturlarini belgilangan tartibda ishlab chiqish va tasdiqlash, bu borada ta'lim yo'nalishlaridagi kvalifikatsiyalarni kadrlar buyurtmachilari bilan kelishgan holda to'g'ri belgilash;

o'quv dasturlarini **TOP-300** talikka kirgan oliy ta'lim muassasalarining dasturlari asosida ishlab chiqish va 2024/2025 o'quv yilida ta'lim jarayoniga tatbiq etish;

2024/2025 o'quv yilidan boshlab ishlab chiqarish amaliyotlarini muvofiqlashtirib, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonining tegishli qismida uzluksiz **15 haftalik** malakaviy amaliyotlarni joriy qilinishini ta'minlash;

pedagogika sohasida kadrlar tayyorlanadigan ta'lim yo'nalishlarining talabalari uchun **2-kursdan boshlab haftalik o'quv mashg'ulotlarini "4+2" tartibida amalga oshirish choralarini ko'rish;**

bunda, darslarning **4 kuni institutda, 2 kuni** maktabgacha, umumiy o'rta va professional ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash shaklida olib borilishida **nazariya** va **amaliyot** uyg'unligini ta'minlash;

2024/2025 o'quv yilidan boshlab institut professor-o'qituvchilarining o'quv yili davomidagi yuklamasini **10 foizga** kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqib, rahbariyatga taqdim etish;

mustaqil ta'limni tashkil etish yuzasidan ishlab chiqilgan Namunaviy tartibga muvofiq 2024/2025 o'quv yilidan institutda fanlar xususiyatlarini inobatga olgan holda uning mazmuni, akademik salmog'i, samaradorligini oshirish choralarini ko'rish hamda uni baholash tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish;

institutning xorijiy til o'qituvchilari tomonidan talab darajasida xorijiy tilni bilishni baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarga **100 foiz ega bo'lishiga erishish choralarini ko'rish** vazifalari yuklatilsin.

8. Institut matbuot kotibi (A.Abduraimov)ga:

institutga yangi qabul qilish tizimini yoshlarga oddiy va xalqchil tilda tushuntirish ishlarini amalga oshirish hamda bu borada tizimli ishlarni yo'lga qo'yish chorasini ko'rish vazifasi yuklatilsin.

9. Devonxona mudirasi (N.Daniyarova)ga:

mazkur buyruq va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-iyundagi kengaytirilgan majlisining 45-son bayon nusxalarini barcha mas'ullarga yetkazilishini ta'minlasin.

10. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-iyundagi kengaytirilgan majlisining 45-son bayoni.

Rektor v.v.b.



F.Ruzikulov